



# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 11-mart, shanba,

29 (23.750)-son

KUN  
HIKMATI

Mahalla ahlini,  
hayotiy tajribaga  
ega nuroniyalarni  
ulug'lashning yo'li  
ularni eshitish,  
gapiga amal  
qilishni o'rganishdir



www.zarnews.uz [@zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://t.me/zarnews_uz) [@zarnews\\_uz](https://www.twitter.com/zarnews_uz)

# TALABCHANLIK BO'LGAN JOYDA YUTUQ BOR

**10-mart kuni xalq deputatlari  
viloyat Kengashining sakson ik-  
kinchi sessiyasi bo'lib o'tdi.  
Sessiyani Kengash kotibiyati  
mudiri Z.Karimov boshqardi.**

Deputatlar dastlab viloyat investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig'i birinchи o'rinnbosari Sherzo Sobirovning viloyatda 2022-yilda investitsiyalar jaib qilish va investitsiya loylighalarini amalga oshirish bo'yicha hisobotini tingladilar va muhokama qildilar.

Qayd etilishicha, 2022-yilda davlat va huduyi investitsiya dasturlari doirasida qiyamti 11,5 trillion so'mlik 1215 ta loyiha ishga tushirilgan va buning hisobiga 22043 ta yangi ish o'rinnari yaratilgan.

- Jumladan, viloyatda davlat investitsiya dasturi doirasida 93 ta investitsiya loylighthali uchun barcha mablag'lар hisobidan 642,7 million dollar o'zlashtirildi, - dedyi Sh.Sobirov. - Viloyatda 2022-yilga mo'ljallangan ishlar or-ti bilan bajarilgan bo'lsa-da, 4 ta tumanda xorijiy investitsiyalarni jaib qilish bo'yicha reja bajariladi. Misol uchun, Paxtachi tumanida 2022-yilda 6 million dollar xorijiy investitsiyalar jaib qilish belgilangani holda amalda bor-yo'g'i 1,45 million dollar (24 foiz) xorijiy investitsiyalar jaib qilindi.

Payari tumanida esa 5 million dollar xorijiy investitsiyalar jaib qilinishi belgilangan bo'lib, amalda 29 foizi bajarildi.

Sh.Sobirov 2022-yilda viloyatda mahsulotlarni eksportga chiqarish bo'yicha qilingan ishlar tahlili haqida ham hisobot berdi. Ta'kidlanishicha, 2022-yil yakuni bilan 587,3 million dollar miqdoridagi mahsulotlar eksportga chiqarilib (2021-yilning mos davriga nisbatan 128 foiz), belgilangan reja 102 foizga bajarilgan. 565 ta korxonanomidan 60 ta mamlakatga, shundan, 9 ta yangi bozorlar - Braziliya, Singapur, Malayziya, Ummom, Tunis, Bahrayn, Bosniya va Gersegovina, Lyksemburg, Portugaliga davlatlariga mahsulotlarni eksport qilingan.

Deputatlar viloyatga investitsiya jaib qilish va eksportni kengaytirish bo'yicha qilinayotgan ishlar bugungi kun talabi darajasida emasligini bildirib, tizimdaray aymir kamchiliklarni tanqid qildi. Xususan, har bir loyha ijrosi bo'yicha talabchanlik o'rnatalishi zarurligi ta'kidlandi. Tashqi savdo ishlarini va investitsiya kiritish faoliyatida sifat va samaradorlikni oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berishdi.

Sessiya ishida shuningdek, deputatlar viloyat transport boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari J.Qorjovovning 2023-yilda Samarcand shahar jamaot transporti tarmog'ini rivojlantirish bosh rejasini va uni amalga oshirishga dor manzilli dastur bo'yicha taqdirmoti va axborotni eshitidi.

- Usbu manzilli dastur viloyatda aholining yuqori sifatlari va quay lo'yichka tashish xizmatlari bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish, sohada bozor tamoyillarini joriy etish, xususan, moliyalashtirish tizimi va tarif siyosatini takomillashtirish orqali xususiy sektor uchun jozibali biznes muhitini yara-

tishga qaratilgan, - deydi J.Qorjovov. - Unga ko'ra, 2023-yilning 1-avgustiga qadar shaharda avtobus yo'nalişlarining yangi taromog'i joriy etiladi, avtomatlashtirilgan to'lov tizimi va avtomatlashtirilgan dispatcherlik xizmati bosqichma-bosqich yo'la qo'yildi. 2024-yilning 1-yanvariga qadar mutazam shahar avtobus yo'nalişida cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilar tashish brutto-shartnomasi asosida tashkil etilib, moliyalashtirish tizimi bosqichma-bosqich ishga tushiriladi.

Manzilli dasturga ko'ra, 2023-yil yakuniga gacha shaharlararo avtovokzal quriladi, Samarcand shahridagi 44 ta ko'cha va ularning bir-biri bilan kesishish nuqtalarida 181 ta transport detektor (videoekuzatuv) qurilmalari o'rnataladi. Shuningdek, shaharga tumanlardan kirish keluchchi magistrallar yollarida 3 ta qulay transport o'tish bog'lamalari (avtotarrogoh) quriladi. Bular - "M-37 Samarqand halqa yo'li" - Samarqand tumani parrandachilik fabrikasi", "M-37 Samarqand halqa yo'li" - Qo'ndiso'fi mahallasi", "M-39 Samarqand halqa yo'li" - Chumchuqli mahallasi (betonkrug).

Deputatlar manzilli dasturga o'z takliflarini bildirib, bugungi kunda viloyatda transport xizmati ko'satisi, jumladan, jamaot transportida ko'plab muammolar borligini ta'kidlashdi. Bu borada bajarilishi zarur bo'lgan masalalar muhokama markazida bo'ldi.

Sessiya davomida deputatlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining viloyatdagi bozorlarda qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va unga imkoniyat yaratish holatlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomasi yuzasidan viloyat hokimining birinchи o'rinnbosari kotibiyati mudiri Q.Xushboqovning hisobotini tingladi.

Xushboqov taqdimnomada ko'satisib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" belgilanganini, unda mavjud muammolarni tizimli ravishda hal etish belgilab olingenini ta'kidladi.

- Ko'pgina bozorlarda fuqarolar tomonidan o'zboshimchalik bilan savdo do'konlari qurib olingen, - dedi Q.Xushboqov. - Bu holatga barham berish maqsadida bir oy ichida Toyoq tumanida 22 ta, Jomboyda 54 ta, Kattaqo'rg'on shahrida 18 ta, Kattaqo'rg'on, Oqdayro, Payariq, Ishtixon, Urgut, Narpay, Past Darg'om va Samarcand tumanlarida 6 tadan, Samarcand shahridagi "Temir yo'l dehqon bozori" va Bulung'urda 4 tadan bozor hududida o'zboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy savdo do'konlari faoliyatni bartaraf etildi.

Sessiyada shuningdek, viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalardan foydalanan to'g'risidagi xalq deputatlari viloyat Kengashining 2021-yil 30-dekabriddagi VI-53-126-7-0-K/21-son va 2022-yil 18-noyabrdagi VI-76-219-7-0-K/22-sonli qarorlariga o'zgarishlar kiritish to'g'risidagi xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatingan deputatlik vakolatini muddatidan oldin tugatish to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi.

Sessiyada muhokama etilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.



## AVLODLAR BIRLASHGAN YURTDА TARAQQIYOT BO'LADI

**Samarqand shahrida o'tkazilgan  
uch avlod uchrashuvida viloyatning  
barcha shahar va tumanlaridan  
nuroniyalar, o'rta avlod vakillari va  
yoshlar qatnashdi.**

Dastlab ishtirokchilar uchun "Boqiy shahar" majmuasiga sayohat yushtirildi. Shundan so'ng bir piyola choy ustida madaniy tadbir tashkil etildi.

Tadbirda Nuroni jamg'armasi respublika boshqaruvi raisi o'rinnbosari Majid Umarov,

viloyat hokimi Erkinjon Turdimov keksa avlod vakillarining jamiyatidagi o'rniiga to'xtalib, ularni viloyatning itimoiy-iqtisodiy hayotida yanada faol bo'lishga chaqirdi.

- Biz buyuk zotlar avlodimiz, - dedi mehnat faxriysi Alisher Mardiyev. - Ularga munosib bo'lishimiz kerak. Milliy qadriyatlarni, ar'analariga sodiq qolishimiz lozim. Ayrim mamlikatlarda qo'shnilar bir-birini tanimaydi. Biz mehr-oqibatli xalqimiz. Uch avlod vakillari birlashsak, xayrli ishlardan qo'lg'ursak, rojvanish, taraqqiyot bo'ladi.

Istirokchilarga viloyatimizda yashab o'tgan davlat arboblari, taniqli shaxslar hayot va faoli-

yati haqidagi hujjalı film namoyish etildi.

- Bizda shijoat bor, amno tajribai yetishmaydi, - dedyi Jomboy tumanidagi Qang'li mahallasi yoshlar yetakchisi Mirjalol Temirov. - Bunday uchrashuvda biz uchun tajriba maktabi bo'ladi. Bugungi tadbirdan o'zinga xulosani chiqardim. Mahallada ko'pi ko'rg'on onaxon va otaxonlar bilan hamkorlikda ko'proq ishlashimiz lozimligini anglab yetdim.

Tadbirda viloyat hokimg'ligi tomonidan bir guruh faol nuroniyalarga esdalik sovg'alari topshirildi.

To'qin SIDDIQOV,  
Alisher ISROILOV (surat).

**Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida Prezident qaroriga ko'ra, Farangiz Xudoyorova Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlardi.**

**Farangiz uchun bu mukofot shunchaki orzu emas edi. U bu olamdan erta ko'z yungan onasining orzularini ro'yobga chiqarish ishtiyogi bilan yashadi shu yillarda davomida. Shunchaki yashamadi, o'zini o'tga, cho'qqa urdi, qayerdaki yordami tegishi mumkin bo'lsa, qay go'shada mehnati bilan ko'magi tegsa, o'sha yerga yuguraverdi.**

## "Mukofotda onamning duosi bor!"

Farangiz haqida bu taxlit yozayotganim bejiz emas, u hali kollejda o'qib yurgan kezlariyor qahririyatim qoshida tashkil etilgan "Yosh jurnalistlar" mahorat maktabiga qatnab yurar, erkin, dadil fikrlari bilan e'tiborimizga tushgan edi. Shu-shu u ingliz tili yo'naliши bo'yicha oliy dargohga o'qishga kirganida, yoshlar bilan ishlaganida ham doim tahririyat bilan bog'lanib turdi.

Shuning barobarida tabiatan izlanuvchan emas, jamaot ishlariiga sho'ng'ib ketdi.

2021-yilden buyon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashabbusi bilan Samarcanda ilk tajriba-sinov sifatida

tashkil etilgan "Kelajak liderlari" klubining vits-e-prezidenti vazifasida ham qator loyihalarni amalga oshirdi. Viloyat hokimligi hamda Samarcand davlat chet tillar instituti hamkorligida tashkil etilgan "Samarcandning ilmi qizlari" klubi raibani sifatida 120 dan ortiq qizlarni ilm-fan va ilmiy loyihalar borasida o'qitib, turli nomdor stipendiyalarga tayyorlagan. Jumladan, shogirdlarining ikki nafari o'tgan yilda Alisher Navoiy nomidagi, bir nafari Islam Karimov nomidagi Davlat stipendiyalari sovrindori bo'ldi.

Hozirda Farangiz Samarcand davlat chet tillar institutida magistratura bosqichida tahsil olishi barabarida Samarcand shahridagi "Alisher Navoiy" mahalla fuqarolar yig'iniida yoshlar yetakchisi sifatida ham faoliyat ko'rsatmoqda. Mahalladagi yoshlardan 21 na-

farini "Yoshlar daftari"ga kiritib, tadbirkorlik faoliyatiga yo'lg'a qo'yish, o'quv-shartnomasi pulini to'lash, kelajak kasblariiga o'qitish, yordam puli chiqarish, ishga joylash, talabaga madad ko'satish kabi yordam turlarini olishlarida amaliy ko'mak bergen.

Bugungi kunda Farangiz Xudoyorovaning Samarcand davlat chet tillar instituti magistranti sifatida 60 dan ortiq ilmiy maqolalari xalqaro va respublika jurnallarida, 40 ga yaqin publisistik maqolalari mahalliy siyosiy-iqtisodiy gazetalarda va ijtimoiy tarmoqlarda chop etilgan. Xullas, bu tinib-tinchimmas qizning amalga oshirayotgan loyihalarini loyihasi sanoqqa sig'maydi. Ja-

moatçilik yo'nalişida ushu mukofotga sazovor bo'lgan Farangiz o'z hayajonlar bilan o'tqoqlashdi.

- Mukofotni mamlakatimiz rahbari qo'ldan olayotganimdagagi hayajonni tasvirlab berolmayman, - dedyi Farangiz. - Ayniqsa, Prezidentimizning "Ustozlarining rahmati aytilib qo'y", deb aytganlari men uchun ko'p narsani anglatdi. U kishining hammamining olaviy ahvolimizdan ham xabordar ekanligini, yutuqlarining zamirida ustozlarimming o'rni katta ekanligini bilishlari his qildim. Men onamning orzusini ro'yobga chiqarish uchun sakkiz yil harakat qildim. Ko'pchilik mukofot hayotdagi asosiy maqsad emas-ku, deya tanbehan ham berdi. Buni yaxshi tushunaman. Lekin men uchun bu mukofotning qadri boshqacha.

Gulruh MO'MINOVА.

xabar olinib, ularga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatiladi. Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyaluvchilari, Saxon uylarida yashayotganlar, "Temir daftari", "Yoshlar daftari" va "Mehr daftari"ga kiritilgan hamda ko'maka muhitoj insonlarga beg'araz yordamlar beriladi, xayriya tadbirlari amalga oshiriladi.

Tadbirlar davomida "Ibratli oila", "Obod mahalla", "Namulni mafkab", "Mohir laparchi" yo'nalişlarda ko'rik-tanlovlari, adabiy-badiiy uchrashuvlar, kitobxonlik tadbirleri tashkil etiladi.

Viloyatning asosiy bayram tantanalari Samarcand shahridagi Alisher Navoiy nomli markaziy istirohat bog'i va uning atrofidiagi Alisher Navoiy, Kamol Ota Turk ko'chalari, Qorasuv massivi, Kimyogarlar qo'rg'oni "Nurafshon"

## Konstitutsiyaga oid referendum 30-aprel, yakshanba kuni bo'lib otadi

**Joriy yil 10-mart kuni Oliy Majlis  
Qonunchilik palatasining navbatdagi  
majlisida "O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Kon-  
stitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha  
referendum o'tkazish haqidagi masala  
ko'rib chiqildi.**

Majlisda Konstitutsiyaviy qonun loyihasini ishlash qizishda eng yaxshi takliflari ilgari surgan bir qator faol fuqarolar ham ishtirok etdi.

Bir kun avval bo'lib o'tgan majlisda deputatlar tomonidan qonun loyihasini moddama-modda ko'rib chiqish jarayonida uni yanada takomillashtirishga doir bir qator takliflar va fikr-mulohazalar berilgani edi. Mas'ul qo'mitalar har bir taklifi sinchiklab, chuqur tahlil qilib, ularning aksariyatini loyiha matnida aks ettirdi.

Majlisda Konstitutsiyaviy qonun loyihasini o'tish qoidalari moddama-modda muhokama qilindi. Mazkur qoidalarni bilan Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalarining kuchga kirish muddatlari va tartibi batatsil belgilangan.

So'z olganlar konstitutsiyaviy islohotlar fuqarolarimiz fikri va qo'llab-quvvatlashi asosida referendum orqali amalga oshirilishini tom'a'noda xalqimiz xoish-irodasining ifodasi - haqiqiy xalq Konstitutsiyasi qabul qilinishi sifatida alohida e'tirof etishdi.

Deputatlar tomonidan Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha referendum sanasini 2023-yil 30-aprel deb belgilash hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining referendumni o'tkazish to'g'risidagi qarori yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudining xulosasini olish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

Yakunda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referandumini o'tkazish haqida"gi qaror qabul qilindi.

san'at saroyi, Xishrav qo'rg'oni hamda Farhod shaharchasida bo'lib o'tadi.

Bayram sayillari o'tadigan hududlarda hunarmand-chilik mahsulotlari, "Samarcand nonlari", musiqa asboblari ko'rgazmalari, gullar festivali, dorbozlarning chiqishlari, baxshilar, doirachilar, milliy taomlar, milliy sport turlari bo'yicha tanlovlari o'tkaziladi.

"Mo'jiza" amfiteatrida konsert dasturlari, ommaviy sahna ko'rinishlari namoyish etiladi.

Jomboy tumanida chavandozlar uch

**Deputat minbari**

Odamlarning turmush sharoitlarini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va hal etish bugunning zarurati hamda asosiy talabiga aylandi. Xo'sh, saylov okrugim hududidagi mahallalarda qanday masalalar o'z yechimini kutmoqda? Fuqarolarni qanday muammolar qynamoqda?

**Muammolar kutib turmaydi**

lashtirilmaganligi masalasi ko'taridi.

Sadriddin Ayniy nomli mahallada bo'lganimda, eng asosiy muammo jamaot transporti ekanligi aytildi. Ya'nii, bir necha yil avval 22, 32 va 12-raqamli avtobuslar ushbu mahalla hududidan o'tgan. Hozirgi kunda avtobuslar qatnovi to'xtatilib, aholining boshqa manzilga borishida qiyinchilik tug'ilgani bildirildi.

Shuningdek, ushbu hududda joylashgan 31-umumi o'rta ta'lif maktabi atrofidagi irrigatsiya tizimining ta'mirlabligi va simyoq'ochlarning ma'nан eskrigani, ayrimlari yaroqsiz holatda ekanligi aytildi.

Bayon qilinganlardan guvoh bo'lish mumkinki, muammolar dolzor, ularning har biri tezkor chora ko'rishni taqozo qildi. Shu sababli murojaatlari yuzasidan vakolatim doirasida tegishli tashkiotlarga deputatlik so'rovrali yubordim. Albatta, so'rovralga javob berish 10 kun muddat talab qildi. Rasmiyarning javoblari, aniqrog'i, amaly sa'y-harakatlari asosida masalani Kengash muhokamasiiga olib chiqishni rejalashtiriyapmiz.

**Muhiba BOBOBEKOVA,**  
xalq deputatları  
Samarqand shahar  
Kengashi deputati.

Insoniyat hayot tarzining asosini energiya tashkil qilishi hech kimga sir emas. Inson tomonidan iste'mol qilinayotgan umumi energiya miqdori tarixiy rivojlanish bosqichlariga bog'liq. Masalan, ibtidoiy jamoa davrida inson tomonidan bir kunda iste'mol qilinadigan o'rtacha quvvat, ya'ni ularning yashashini ta'minlovchi metabolik energiya oziq-ovqat hisoblangan. Uning miqdori taxminan 2,4 kWt. soatdan iborat bo'lsa, bugungi rivojlangan G'arb mam-lakatlarining yashash darajasida bu ko'rsat-kich ibtidoiy jamoa tuzumiga qaraganda yuz barobardan ko'p va u 250 kWt. soatni tashkil qilmoqda.

Bu insонning nafaqat tirikligini ta'minlovchi metabolik energiyani, balki uning barcha zamonaliv ehtiyojiali: aloqa, elektr va issiqlik energiyasi, transport kabilarni o'z ichiga oladi. Jahan mamlakatlari miqyosida fugarolarning bunday talablarini uzilishlarsiz qondirish uchun albatta, katta miqdorda energiya zarur bo'ladi.

Aholi soni 10 million atrofida bo'lgan Shvetsiya qiroligida yiliga o'rtacha 169,9 TVt. soat (teravat-soat) elektr energiyasi ishlab chiqarilsa, aholisi 36 milliondan ziyod bo'lgan mamlakatimizda 70,01 TVt. soat, ya'ni 2,4 marta kam elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Demak, mamlakatning yoki jamiyatning rivojlanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, shuncha ko'p elektr energiyasi iste'mol qilinadi. O'zbekiston iqtisodining katta sur'atlar bilan rivojlanishi, yangi zavod va fabrikalarning qurilishi hamda ishsha tushrilishi, transport va infrastrukturadagi o'zgarishlar, aholi sonining katta tezlik bilan o'sishi mamlakatimizda elektr energiyasiga bo'lgan talabning keskin ortishiga olib kelmoqda.

Mavjud elektr energiya manbalarining quvвати bu talabarni qondirishga yetarli bo'lmagan bu yilgi qishda yaqqol sezildi. Hozirgi paytda O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi asosan issiqlikdan (85 foiz) va gidroelektrostansiyalardan (13 foiz) olindи.

Muqobil energiya manbalaridan olinadigan energiyaning miqdori, ma'lumotlarga ko'ra, 1,5-2 foizni tashkil qildi. Keyingi yillarda ma'nан eskrigani energiya ishlab chiqaruvchi qurilmalar samaradorligi yuqori bo'lganlari bilan almashirildi, ichki imkoniyatlardan foydalaniб, yangi quvutlar olish yo'iga qo'yilmoqda. Shunga qaramasdan, bugungi kun rivojlanish darajasini elektr energiyasi bilan ta'minlash masalasi qiyin kechmoqda.

**BILASIZMI?**

Prezidentimning 2022-yil 30-maydagи "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, respublika hududidagi ko'p kvartralri uy-joylarni yillar kesimida zilzilabardoshlik bo'yicha xatlovdan o'tkazish amaliyoti yo'iga qo'yilishi belgilangan.

Xatlov natjisasi ko'ra, ekspluatantsiya muddatini o'tab bo'lgan seysmik zaif va avariya alomatlari aniqlanigan ko'p kvartralri uy-joylar o'rnda bosqichma-bosqich yangi uy-joylar qurish bo'yicha takiflar mahalliy davlat hokimiyati organlariga kiritiladi.

Shuningdek, 2023-yil 1-avgustgacha seysmik faol zonalarda joylashgan bino va inshootlar maydonining zilzilalar oqibatida deformatsiyasi, silishi, cho'kishi kabi omillarni aniqlashga mo'ljallangan radiolokatsion kosmik monitoring tizimi yaratiladi.

**Yana bir talabalar turarjoyi foydalanishga topshirildi**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining davlat-xususiy sherikchilik asosida barpo etilgan talabalar turarjoyi binosi foydalanishga topshirildi.

400 o'ringa mo'ljallangan mazkur talabalar turarjoining ochilish marosimida Raqamli texnologiyalar vaziri o'rinosari Rustam Karimov, TATU rektori Baxtiyor Mahkamovlar ishtirok etdi.

Ushbu talabalar turarjoyi "GULOM XUSEN BUILDING" mas'uliyati cheklangan jamiyatini bilan hamkorlikda 22 milliard so'mdan ortiq

mablag' evaziga qurildi. 4 qavatdan iborat binoda 128 ta yashash xonasi, 4 ta oshxonha, kutubxonasi, madaniyat maskani, "Workout" maydonchasi mavjud.

Har bir xona ichida alohida yuvinish xonasi, hojatxona bo'lib, kiyim javonlari, stolstul, krovat, tumbochka va televizor bilan jihozlangan.



Bugungi kunda manzara li daraxtlar, xususan, archalarning barglari da sarg'ayish holatlarini ko'ryapmiz. Archa ilidzida, o'sib rivojlanishida gi o'zgarishlar sabab, ya'ni ozuqa yetishmasa, zararkunanda hasharotlar – arxa unsimon qurti yoki o'rgimchak kanalar yemirsasi, qishda sovuq, yozda issiқ oqibatida sarg'ayib ketadi. Buning xavfli tomoni yo'q, ularga ildizidan va bargidan oziqlantiruvchi ozuqalar be-rish kifoya.

Archa ozuqa yetishmasligi yoki zararkunandalarning ta'siridan "stress"ga tushadi. Uning ildiziga va bargiga yetarli oziqlantiruvchi moddalar bersak, qishdan chiqishi bilan tezda o'zini tiklab oladi. Sarg'aygan barglar ni davolash uchun azot, fosfor, kaliy bilan mikroelementlarni birga qo'llasak,

**Archalar nega sarg'ayib ketyapti?**

ya'ni ularni archa daraxti barglariiga sepsak, yashil barglar tez tiklanadi. Ularni martning birinchi va ikkinchi o'n kunligida oziqlantirish kerak. Zararkunandalarning archa daraxting tanasida qishlaydi. Ularni qishlovdan chiqmasdan yo'qotadigan dori vositalari bor, dastlab o'shalar yordamida zararkunandalarning yo'qotiladi. So'ngra dorini qishlovdan chiqishi bilan, vegetatsiya – o'sish jarayonida qo'llash lozim.

Archani yuz foiz sovuq urmaydi, chunki ular tog'larda o'sadi, sovuqqa chidamli daraxt. O'tgan yili "Yashil makon" dasturi bo'yicha ekilgan ko'chatlarimizda sarg'ayish bor. Ularga sovuq ta'sir qilgan. Sababi, ildizi yaxshi joylashmagan yoki o'tgan yili yaxshi oziqlantirilishagan. Archani issiқ kunlarida suvsiz qoldirmaslik ham kerak.

Manzarali daraxtlarni ko'cha ko'yularda ekip parvarishlayotganda, ularni birinchi navbatda sug'orishimiz,

so'ngra vaqtida oziqlantirib turishimiz lozim. Aks holda qishning sovg'i yoki yozning jaziramasiga bardosh berolmaydi. Zararli ta'sirlardan himoya qilib, qo'shimcha oziqlantirishni yo'lg'a qo'syk, daraxtlar sarg'aymaydi.

Ularni sug'orishda ildiz bo'g'ziga suv to'planmaydigan qilib, kattaligiga qarab, 30-35 radiusda aylantirilib ariqcha kovlanadi va sug'oriladi. Archalarning tagiga suv to'planib qolsa ham bo'lmaydi, ildizi chirib, kasallanadi.

O'tgan yili filialimiz TATU Samarqand filiali va Samarqand davlat chet tillar instituti bilan xo'jalik shartnomalarini tuzib, ushbu oly ta'lif muassasalariga tegishli manzaralari daraxtlarni zararkunandalarning himoya qiladigan vositalarni qo'llab, bargidan oziqlantirib beridik va daraxtlarni kasallikdan asrab qoldik. Bu yil ham tashkilot va korxonalariga yordam berishiga tayyormiz.

Otamurod PO'LATOV,  
Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali katta o'qituvchisi.

**QUYOSH PANELLARINI O'ZIMIZDA ISHLAB CHIQARISH KERAK**

Ehtiyojdan kelib chiqib, xorijlik hamkorlar yordamida Samarqand, Navoiy, Surxondaryo, Buxoro, Namangan viloyatlarda davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida Quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda.

Davlatimiz rahbarining yaqinda Jizzax viloyati tashrifi chog'ida o'tkazilan uchrashuvda Jizzax politeknika instituti professori Urushboy Yo'ldoshev kremlni asosidagi quyosh elementlarini (QE) ishlab chiqarishni yo'iga qo'yishni ilgari surdi va bu taklif Prezidentimiz tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Prezidentimizning davlat korxonalarining elektr energiyasi bo'lgan ehtiyojlarining 30 foizini muqobil energiya manbalaridan qoplash to'g'risidagi qarori e'lon qilindi.

2030-yilga borib, mamlakat ehtiyojlar uchun kerak bo'lgan elektr energiyasining 25 foizini muqobil energiya manbalarini hisobidan qoplash ilgari surildi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida ham qiymati 15 milliard so'mlik quyosh panellari o'rnatish rejalashtirilgan. Bu albatta, SamDUda muqobil energiya manbalaridan foydalanan bo'yicha dadil qadam surdi.

Yaqin istiqbolda quyosh panellarini binolar tomi ustiga o'rnatish haqiqatan ham dolzor masala. Buning yechimi sifatida xorijdan quyosh panellari sotib olinib, mamlakatimizda yig'ilsa, xarajatlarni biroz kamayitirishga erishadi.

Uzoq istiqbolda quyosh panellarini o'zimizda ishlab chiqarish kun tartibiga qo'yilishi kerak. Hozirgi kunda quyosh panellarini ishlab chiqarish texnologiyalarining "Top-10"taligiga kiruvchilar bilan tanishib, mamlakatimiz uchun eng quyay bo'lganini tanlab, shu sohada ilmiy-tad-

qot hamda konstruktorklik izlanishlarini boshlash lozim.

Monokristallik kremlni asosidagi quyosh panelari eng ko'p tarqalgan bo'lishiga qaramay, ularda tannarning qimatligi, elementlarning mo'rtligi, havo haroratining o'zaru-chunligiga chidamsizligi kabi kamchiliklari ham bor. Hozirgi paytda bu kamchiliklardan xoli bo'lgan "Top-10"talik texnologiyalarga kiradigan bir qancha yangi texnologiyalar mavjud. Masalan, kremlni asosidagi getero o'tishli quyosh panellarini ishlab chiqarish mumkin. Biroq respublikamizda bior-bir ilmiy tekshirish instituti yoki oly o'quv yurtlarida bu sohada ilmiy tadqiqot hamda konstruktorklik ishlari olib borilmaydi.

Nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda yana bir dolzor muammo — elektr va issiqlik energiyasini tejash masalasi bo'lib, bu sohada ham qilinishi kerak bo'lgan ishlar mavjud. Yoritishga mo'ljallangan elektr energiyasini tejaydig'an va o'zimizda ishlab chiqariladigan yoritikchilar bilan almashirish juda muhim. Aqliy uylar texnologiyalarini qo'llash, shu bilan birga, arxitektorlar diqqati qishloq sharoitlarda yashayotgan aholi uchun energiya tejaydigan uylarni loyihalash va ularni mahalliy xomashyo hisobidan qurish texnologiyalarini yaratishga qaratilsa, ayni muddao bo'lar edi.

Agar yuqoridagi texnologiyalarni o'zlashtirishga va almashirishga kirilsa, bu sohada katta yutuqlarga erishishim hamda mamlakatimizda ko'p miqdordagi elektr energiyasini tejash imkoniyati paydo bo'la.

**Eshqvavat ARZIQULOV,**  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori.

**268 KISHI ishga yo'llanma oldi**

Samarqand shahrida bo'sh ish o'rnlari mehnat yarmarkasi o'tkazildi.

Viloyat hokimligi, prokuratura, kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan yarmarkada 183 ta korxona, tashkilot va muassasa 3 mingga yaqin bo'sh ish o'rni bilan ishtirok etdi.

– Mazkur yarmarkada tumanimizdan 10 ta korxona 510 ta bo'sh ish o'rni bilan qatnashdi, – deydi Urgut tumani aholi bandligiga ko'maklashish markazi shu'ba mudiri Bahodir Sharopov. – Ular taklif etayotgan ish o'rnlari uchun belgilangan oylik maosh o'rtaча 1 million 800 ming so'mdan 4 million so'mgacha. Misol uchun, "Sam Ferre" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga 150 nafar payvandlovchi, chilangar, yuk tashuvchi ziar. Taklif ettilayotgan ish haq'i 1 million 800 ming so'mdan 8 million so'mgacha. Ish beruvchilar malakali ishchilarini jaib qilib, samaradorlikka erishishga intilmoda.

Yarmarka davomida 268 nafr fuqaroga ishga yo'llanma berildi. Ularning 183 nafari muqim ishga joylashgan bo'lsa, 41 nafari kasb-hunar o'rganishga, 44 nafari haq to'lanadigan jamaot ishlariiga yo'naltirildi.



Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda viloyatda 451,6 ming nafr fuqaro bandligini ta'minlash rejalashtirilgan. Shundan 165,8 ming nafari doimiy, 203,4 ming nafr mavsumiy va 82,4 ming nafr norasmiy rasmiyatlari rasmiylashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Shuningdek, ishsiz, kasb-hunarga ega bo'lmagan 13 ming nafr fuqaro kasb-hunarga o'qitilishi belgilangan.

**Shahnoza O'KTAMOVA.**

6-7-mart kunlari ushu anjumanda kamina ham ishtirok etdim. Avalo, davlatimiz rahbarining konferensiya qatnashchilariga yo'llagan tabrigida "...biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chucher o'rganishimiz kerak.

Bu bebaboy boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlari bugungi tinch va erkin hayotning qadrini yanada teranroq anglab yetadi", degan so'zlar davra qatnashchilariga o'ziga xos jo'shqinlik bag'ishladi. Darvoqe, bu anjumanda Turkiya, Ozarbayjon, Shvetsiya, Qozog'istonidan hamda o'zbekistonlik taniqli olmlar ishtirok etdi.

So'zga chiqqanlar turkistonlik talabalarning Germaniyada o'qib qaytgandan keyingi ayananchi taqdiri, jadidchilikning kelib chiqish manbalari, bu harakatning

# Jadidlar kim bo'lgan?

Toshkentda bo'lgan xalqaro konferensiyada ana shu savolga javob izlandi

Turkiston muxtoriyati bilan munosabati kabi mavzular-da mazmunli chiqish qildilar. Bunday tahsiliy yutuqlar xalqimiz vakillarining o'sha davrda ko'sratgut buyuk jasoratining ifodasi bo'ldi, desam xata qilmayman.

